O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro’yxatga olindi

№ 2558 26.10.2024

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha 1-prorektor A.S.Soleyev

2024-yil “____” “_____”

MALAKAVIY AMALIYOT
DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530 000- Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530200 – Geografiya

Samarqand – 2024

MODUL / DASTUR

Geografiya va ekologiya fakulteti
60530200-Geografiya

Fan nomi:	Malakaviy amaliyot
Fan turi:	majburiy
Fan kodi:	MA1246828
Yil:	2024-2025
Semestr:	2
Ta'lim shakli:	kunduzgi
Semestrlarga ajratilgan soatlar:	60
Amaliyot	24
Mustaqil ta'lim	36
Kredit miqdori:	2
Baholash shakli:	hisobot
Fan tili:	o'zbek
Dastur mualliflari:	**Eshquvvatov B.B., X.T.Nazarov., G'aniyev Z.A., A.S.Fozilov.**
E-mail:	bekzod.eshquvvatov@mail.ru telegram +998997005406
Tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi.

Fanning maqsadi (FM)
Malakaviy amaliyot o'quv jarayonining dala, ishlab chiqarish va umumta'lim maktab sharoitidagi bevosita davomi bo'lib, u talabalarning nazariy kursni o'rganish vaqtida olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish va umumlashtirish, shuningdek bu bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha ularda zarur ishlab chiqarish malakalarini hosil qilish maqsadida o'tkaziladi. Nazariy kurs singari o'quv amaliyoti ham universitetlarda geografiya mutaxassisligi tayyorlash bo'yicha mavjud dasturning ajralmas qismi hisoblanadi.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	Bunda talaba har bir joyning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, xo'jaligi, aholisi, transporti va boshqa ishlarini pishiq-puxta bajarishni, umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy muhiti, ta'lim muhiti, muassasa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik va boshqalarni ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash uslubiyoti haqida ***tasavvurga ega bo'lishi*** kerak.
2.	dala sharoiti, ishlab chiqarish korxonasi hamda umumta'lim maktabida o'zi mustaqil tarzda topshiriqlarni bajara olishi, tashkilotning ish yuritish jarayonlari, boshqaruvchilik faoliyati, fan o'qituvchilarining dars davomida o'quvchilar bilan hamda sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyat yuzasidan o'quvchilarga munosabatlari, me'yoriy hujjatlari bilan tanishishlari va ***ulardan foydalana olishi*** **lozim.**

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (Amaliyot mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** **2024-2025 o'quv yili uchun (1-kurs, 2-hafta)** **Mashg'ulotlar shakli: Amaliyot (A)**	
A1	**Joyning geografik o'rni va chegaralarini, geologik tuzishi va relefini o'rganish** Malakaviy amaliyot o'tkaziladigan hududning geografik o'rni va chegaralari chizish. Tabiiy geografik sharoiti tahlil qilish. O'rganilish tarixi. Tabiiy sharoitini shakllantiruvchi omillarni aniqlash. Geografik xususiyatlari o'rganish. Geologik va yer yuzasining tuzilishi kartasini chizish. Toglar va tekisliklar. Burmalanish davrlari aniqlash. Joyning tabiiy kartasi chizish.
A2	**Joyning iqlimi va ichki suvlarini o'rganish** Ob-havo. Iqlimi va iqlim xususiyatlari. Iqlim hosil qiluvchi omillarni tahlil qilish. Sutkalik, oylik va yillik o'rtacha haroratni o'rganish va tahlil qilish. Atmosfera yo'ginlari. Termometr, Barometr va Anemometrdan foydalanish. Ichki suvlari. Daryolar. Soylar. Ko'llar. Suv omborlari. Kanallar. Yer osti suvlarini o'rhanish.
A3	**Joyning tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish** Tuproq tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish. Joyning tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosini turlarini aniqlash. Balandlik bo'yicha tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosini tarqalishini tahlil qilish. Tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosiga antropogen ta'sirni o'rganish.
A4	**Joyda topografik o'lchov ishlarini olib borish (nivelirlash ishlarini bajarish)** Nivelirlash ishlari olib boriladigan hududni ajratish. Nivelirni ish jarayoniga keltirish. Nivelirlash ishlarini amalga oshirish. Nivelirlash natijalarini qog'ozga tushirish.
A5	**Joyda topografik o'lchov ishlarini olib borish (maydon va masofa o'lchash)** Maydon va masofa o'lchov ishlari olib boriladigan hududni ajratish. Maydon va masofa o'lchov ishlari olib borishda foydalaniladigan asboblrni tekshirish. Maydon va masofa o'lchov ishlari ishlarini amalga oshirish. Maydon va masofa o'lchov ishlari natijalarini qog'ozga tushirish.
A6	**Joyda topografik karta-sxemasini chizish** Joyda topografik karta-sxemasini chizish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Oquv qurollarini sozlash. Turli metodlar asosida topogrfik kartani chizish. Karta-xemaga bezak berish ishlari.
A7	Belgilangan uchastkalarda iqtisodiy geografik ishlarni amalga oshirish. Bunda joylarni tabiiy sharoitiga iqtisodiy geografik baho berish
A8	Joyning atrofida joylarni mineral, suv, o'simlik resurslarini o'rganish va karta tushirish
A9	Hududning xo'jaliklardagi dehqonchilik tarmoqlarini o'rganish va karta tushirish
A10	Hududlarni ishlab chiqarish korxonalari xususiyatlarini geografik baholash
A11	Hududlar bo'yicha to'plangan statistik ma'lumotlarni tahlil qilish
A12	Amaliyot yakuni bo'yicha hisobot yozish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Malakaviy amaliyot" bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi.

№	Mavzular
	2024-2025 o'quv yili uchun (1-kurs, 2-hafta)
1	Belgilangan hududning tabiiy geografik sharoiti tahlil qilish
2	Belgilangan hududning geologik va yer yuzasining tuzilishi karta-sxemasini chizish
3	Belgilangan hududning topografik karta-sxemasini chizish
4	Belgilangan hududning suv, o'simlik resurslarini karta-sxemasini chizish

Talabalar bilimini nazorat qilish mezoni va tartibi

"Malakaviy amaliyot" fan dasturi talabalar bilimini baholash "Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ta'limning kredit tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risida yo'riqnoma"ga asosan amalga oshiriladi.

№	Bajariladigan topshiriqlar	
1.	Amaliyot bo'yicha tasavurga ega va umumiy mohiyatini tushunadi	0,5
2.	Mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi	0,5
3.	Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarganligi uchun	0,5
4.	Amaliyot topshiriqlarini mustaqil bajara oladi	0,5
5.	Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay oladi	0,5
6.	Ijodiy fikrlay oladi	0,5
7.	Amaliyotdagi faolligi uchun	0,5
8.	Malakaviy amaliyot kundaligi to'ldirganligi uchun	0,5
9.	Hisobotni tayyorlaganligi uchun	0,5
10.	Taqdimot himoyasini o'tkazganligi uchun	0,5
	Jami	5

5	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Malakaviy amaliyotni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Malakaviy amaliyot"ning ta'lim tizimida meyoriy hujjatlar, amaliyotda o'lchov asboblaridan foydalanish, geografik kartalardan amalda foydalanish, tabiiy va iqtisodiy geogrfaik sharoitni geografik tahlil qilish va baholash, geografik fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari. Geografik fanlarni o'qitishda didaktik tamoyillar va qoidalar, ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlari, maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, amaliyot hisobotini yozish, baholash mezonlariga oid nazariy qarashlar ***haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • amaliyotda o'lchov asboblaridan foydalanish, geografik kartalardan amalda foydalanish, tabiiy va iqtisodiy geogrfaik sharoitni geografik tahlil qilish va baholash uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlari, ta'lim tizimi meyoriy hujatlari bilan ishlash, dars shakllari va darsni tashkil etish, darsda interfaol usullaridan foydalanish va amalda qo'llay olish, maxsus fanlarni o'qitish shakllarining umumiy tavsifi va o'qitishda ko'rgazmali vositalarni tayyorlash metodikasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, rejalashtirish va uni rasmiylashtirishda zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarning o'ziga xos qirralarini bilib oladilar va ulardan amalda foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • amaliyotda o'lchov asboblaridan foydalanish, geografik kartalardan amalda foydalanish, tabiiy va iqtisodiy geogrfaik sharoitni geografik tahlil qilish va baholash ta'lim tizimida meyoriy hujjatlar, geografik fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari. maxsus fanlarni o'qitishda didaktik tamoyillar va qoidalar, ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlari, maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, o'qitishda ko'rgazmali vositalarni tayyorlash metodikasi foydalanishi, baholash mezonlaridan oqilona foydalanish, ta'lim tizimi muammolarini bilishi va ulardan foydalana olishi ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
6.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** - interfaol keys-stadilar; - amaliy mashg'ulotlar; - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
7.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Malakaviy amaliyotga oid amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, o'lchov asboblaridan mustaqil foydalanish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, mustaqil tarzda topshiriqlarni bajara olish, darslarni yakuniy hisobotni topshirish.

BAHOLASH MEZONI VA TARTIBI

"Malakaviy amaliyot" talabalar bilimini baholash "Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ta'limning kredit tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risida yo'riqnoma"ga asosan amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyotga ajratilgan jami kredit (soat) miqdori: 2(60 s).

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

"Malakaviy amaliyot" fanidan talabalar bilimini baholash "Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ta'limning kredit tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risida yo'riqnoma"ga asosan amalga oshiriladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

A) 5 baho olish uchun talabaning fan bo`yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

✓ talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi,

- ✓ ijodiy fikrlay oladi,
- ✓ mustaqil mushohada yuritadi,
- ✓ olgan bilimini amalda qo'llay oladi,
- ✓ fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi
- ✓ fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega.

B) 4 baho olish uchun talabaning fan bo`yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- ✓ talaba mustaqil mushohada yuritadi;
- ✓ olgan bilimini amalda qo'llay oladi;
- ✓ fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi va aytib beradi;
- ✓ fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega.

V) 3 baho olish uchun talabaning fan bo`yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi;
- fanning (mavzuning) umumiy mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi va aytib beradi;
- fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega.

G) Quyidagi hollarda talabaning fan bo`yicha bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan;
- fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi;
- fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas.

➢ YaN – yozma ish shaklida o'tkaziladi.

➢ YN uchun tuzilgan savollar bazasi hajmi va mazmuni talabaning o'zlashtirishini xolis (obyektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishishiga kafedra mas'ul.

➢ Yakuniy nazoratlar bakalavriaturaning kunduzgi va kechki ta'lim shakli talabalariga Talabalar nazoratlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limida, magistratura talabalariga Magistratura bo'limida o'tkaziladi. Nazorat jarayoni va ishlarni tekshirishda mashg'ulot olib borgan professor-o'qituvchilar ishtirok etmaydi.

➢ Yozma ish shaklidagi nazoratlar maxsus jihozlangan xonalarda, videokuzatuv ostida o'tkaziladi va baholanadi.

➢ Tekshirilgan yozma ishlardan ixtiyoriy tarzda tanlangan qismi baholashning adolatliligini o`rganish maqsadida skanerlangan holda respublikamizning turdosh oliy ta'lim muassasalariga yuborilishi mumkin. Shu orqali YNlarni tekshirishga jalb qilingan professor-o'qituvchilar faoliyatiga baho berib boriladi.

➢ Test shaklidagi nazoratlar videokuzatuv ostida kompyuter sinflarida olinadi.

6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Асомов М., Мирзалиев Т. Топография асослари ва картографиядан амалий

	машғулотлар. –Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1990. 2. Baxritdinov B.A, Zokirova S.A, Abdurahimova G.A, A'zam, S.E Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. -T-2008, 222-bet 3. Eshquvvatov B.B., Meliyev B.A. Malakaviy amaliyot. –Samarqand, 2023. 4. Soliev A.S O'zbekiston geografiyasi. Darslik. T-2014, 352 bet 5. Nigmanov E Iqtisodiy geografiya (jadvallarda).O'quv qo'llanma T-2016, 301 bet. 6. Mirzaev M.A Turizm asoslari o'quv qo'llanma T-2011 7. To'xliev N O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O'quv qo'llanma T-2006 8. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O'UM- Samarqand-2014 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Абиркулов Қ. Иқтисодий география. –Т., 2004. 2. Ваҳобов Х. ва б. Малакавий амалиёт дастури. -Т.: ТДПУ. 2012. 3. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари.-Т., 1999. 4. Чинникулов Х., Ибрагимов Р.Н. Геологиядан ўқув амалиёти асослари. – Тошкент, 2005. -154 б. www.Ziyo.net www.gov.uz

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Mualliflari:	**Fan modul uchun mas'ullar:** **Eshquvvatov B.B.** Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti, PhD. **X.T.Nazarov-** Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti **G'aniyev Z.A.** - Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti, PhD. **A.S.Fozilov** - Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail:	bekzod.eshquvvatov@mail.ru
Tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Taqrizchilar:	**Taqrizchilar:** **X.Jo'raqulov** – SamDU, "Geologiya va Gidrometrologiya" kafedrasi professori, geografiya fanlari nomzodi **Alimkulov N.** – Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o' 'qitish metodikasi" kafedrasi professori v.b. g.f.d., (DSc).

Mazkur dastur universitet o‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil _____ avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur dastur “Geografiya va tabiiy resurslar” kafedrasining 2024-yil ____ avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

2-O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i: **S.M.Samadov**

Fakultet dekani **S.B. Abbasov**

Kafedra mudiri: **B.B.Eshquvvatov**

Tuzuvchilar: **B.B.Eshquvvatov**
X.T.Nazarov
Z.A.G’aniyev
A.S.Fozilov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Geografiya va tabiiy resurslar” kafedrasi professor-o’qituvchilari tomonidan 60530200 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi uchun tuzilgan “Malakaviy amaliyot” dasturiga

T A Q R I Z

Malakaviy amaliyot o’quv jarayonining dala, ishlab chiqarish va umumta’lim maktab sharoitidagi bevosita davomi bo’lib, u talabalarning nazariy kursni o’rganish vaqtida olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish va umumlashtirish, shuningdek bu bilimlarni amalda qo’llash bo’yicha ularda zarur ishlab chiqarish malakalarini hosil qilish maqsadida o’tkaziladi. Nazariy kurs singari o’quv amaliyoti ham universitetlarda geografiya mutaxassisligi tayyorlash bo’yicha mavjud dasturning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda talaba har bir joyning geografik o’rni, tabiiy sharoiti va resurslari, xo’jaligi, aholisi, transporti va boshqa ishlarini pishiq-puxta bajarishni, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ijtimoiy muhiti, ta’lim muhiti, muassasa sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik va boshqalarni ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash uslubiyoti haqida tasavvurga ega bo’lishi kerak.

Mazkur dastur 2024 yilda ishlab chiqilgan malaka talablari asosida 60530200 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tuzilgan “Malakaviy amaliyot” dasturida malakaviy amaliyotga jami 28 kredit ajratilgan bo’lib, yillar davomida ketma-ketlikda 1-kursda (2kredit) 2-hafta, 2-kursda (2kredit) 2-hafta, 3-kursda (2kredit) 2-hafta, 4-kursda (22kredit) 15-hafta o’tilishi rejalashtirlgan.

Mazkur dasturida dala sharoiti, ishlab chiqarish korxonasi hamda umumta’lim maktabida o’zi mustaqil tarzda topshiriqlarni bajara olishi, tashkilotning ish yuritish jarayonlari, boshqaruvchilik faoliyati, fan o‘qituvchilarining dars davomida o‘quvchilar bilan hamda sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyat yuzasidan o‘quvchilarga munosabatlari, me’yoriy hujjatlari bilan tanishishlari va ulardan foydalana olishi yoritilgan.

Dasturda mashg‘ulotlarining mazmuni, ketma-ketligiga e’tibor qaratilgan, amaliyot mashg‘ulotlarda amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Mustaqil ish mavzulari asosiy tayanch mavzular doirasida keltirilgan va talabalar fanda o‘rganishi lozim bo‘lgan barcha jihatlarni o‘z ichiga olgan, malakaviy amaliyotning asosiy kompitensiyalari, ta’lim texnologiyalari va metodlari asosli shakllantirilgan. Ushbu dastur malaka talabida belgilangan talablar asosida yozilgan va uni nashr qilishga tavsiya etaman.

Geologiya va gidrometrologiya kafedrasi professori **X.Jo’raqulov**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi professor-o'qituvchilari B.B.Eshquvvatov, Z.A.G'aniyev, K.Q.Davronov tomonidan 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan "Malakaviy amaliyot" dasturiga

TAQRIZ

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda malakaviy amaliyot muhim o'rin tutadi. Malakaviy amaliyot davomida talaba har bir joyning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, xo'jaligi, aholisi, transporti va boshqa ishlarini pishiq-puxta bajarishni, umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy muhiti, ta'lim muhiti, muassasa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik va boshqalarni ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash uslubiyoti haqida tasavvurga ega bo'ladi. Malakaviy amaliyot o'quv jarayonining dala, ishlab chiqarish va umumta'lim maktab sharoitidagi bevosita davomi bo'lib, u talabalarning nazariy kursni o'rganish vaqtida olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish va umumlashtirish, shuningdek bu bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha ularda zarur ishlab chiqarish malakalarini hosil qilish maqsadida o'tkaziladi.

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Malakaviy amaliyot" dasturi 2024 yilda ishlab chiqilgan malaka talablari asosida malakaviy amaliyotga jami 28 kredit ajratilgan. Mazkur dasturida dala sharoiti, ishlab chiqarish korxonasi hamda umumta'lim maktabida o'zi mustaqil tarzda belgilangan topshiriqlarni mustaqil tarzda bajara olishi, tashkilotning ish yuritish jarayonlari, boshqaruvchilik faoliyati, fan o'qituvchilarining dars davomida o'quvchilar bilan hamda sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyat yuzasidan o'quvchilarga munosabatlari, me'yoriy hujjatlari bilan tanishishlari va ulardan foydalana olishi yoritilgan.

Malakaviy amaliyot dasturida amaliyot davomida mashg'ulotlarining mavzulari ketma-ketlikda bir-birini to'ldirishi hamda ketma-ketligiga e'tibor qaratilgan, amaliyot mashg'ulotlarda amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan barcha mavzularni o'z ichiga oladi. Mustaqil ish mavzulari asosiy tayanch mavzular doirasida keltirilgan va talabalar fanda o'rganishi lozim bo'lgan barcha jihatlarni o'z ichiga olgan, malakaviy amaliyotning asosiy kompitensiyalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari asosli shakllantirilgan. Ushbu dastur malaka talabida belgilangan talablar asosida yozilgan deb hisoblayman va uni nashr qilishga tavsiya etaman.

Nizomiy nomidagi TDPU
"Geografiya va uni o' 'qitish metodikasi"
kafedrasi professorii v.b. g.f.d., (DSc). **N.R.Alimkulov**